

1

Haq yo'lida ikki Kaba bo'l mish hosil,
 Bir - Kabayi suvrat esa, bir - Kabayi dil.
 Sen sayla va dillarni ziyyarat ayla.
 Ming Kabadin ortiqroq emishdir bir dil.

2

Maqsudi diling, murodi joning ishqadir,
 Sarmoyayi umri zindagoning ishqadir.
 Yod aylaki, ishqdin baqo topdi Xizr,
 Yaniki, hayoti jovidoniig ishqadir.

3

Mastingman o'zim, juravu jom bilmasmen,
 Saydingman o'zim, donavu dom bilmasmen.
 Ul Kabayu butxonada maqsad - sensan,
 Sensiz nadir ul ikki jahon, bilmasmen...

4

Sendin na hayoti jovidon istarmen,
 Na ayshi tarab, gashti jahon istarmen.
 Na komi dilu rohati jon istarmen,
 Har neki ravo ayla - hamon istarmen...

5

Har kimsa seni bilsa, bu jonni na qilar?
 Farzandu ayolu xonumonni na qilar?
 Devona qilib, ikki jahon bergaysen,
 Devona quling ikki jahonni na qilar?

6

Payvasta dilim mudom rizoying aytsin,
 Jonim nafas olganda duoying aytsin.
 Qabrim boshida agar o'tar bo'lsa giyoh,
 Yaprog'i atir sochib, vafoying aytsin.

7

Keldim kecha, qon kildi yurishmay korim,
 Bul kun qizimay, kasod erur bozorim.
 Erta ketadurman, bilmayin asrorim,
 Ne afzal emish bo'yila yo'qimdin borim?..

8

Diydamda o'zing ayon ekansen, bildim,
 Siynamda o'zing nihon ekansen, bildim.
 Izlab seni shu jumla jahondin so'radim,
 Shu jumlayu shu jahon ekansen, bildim...

9

Ko'nglim, malagim dardini davo etma,
 Jonim, g'amipi o'zingga oshno etma.
 Dardu g'ami ne uning, sira aytmasmen,
 Ko'ksim kuyigi, sen meni rasvo etma...

10

Yo Rab, yo'lingda rost nishon istarmen,
 Tuproq ila tanimga jon istarmen.
 Yetdim bori nematingga, evoh, endi

Shukrimni deyishga bir zabon istarmen...

11

Yo Rab, dilimga himmattingdan jon ber,
Shu dardi dilimga sabr ila darmon ber.
Bu banda na bilsinki - ne aytmoq lozim?
Har neki bilarsan, ber uni, chandon ber...

12

Mahshar kuni oshiqqa bo'lak kor bo'lmas,
Yor yuziga boqmas ersa ul, bor bo'lmas.
Vasling ko'yidin bihisht sari boshlasalar,
Bormasmen, agar vadayi diydor bo'lmas...

13

Har yerda inoyati xudolik bo'lgay,
Fisq oxiri poku porsolik bo'lgay.
Har yerdaki qahru kibriyolik bo'lgay,
Sajjodani qo'y, kalisiyolik bo'lgay...

14

Jonim chu ajal yo'lingda hosil bo'lmish,
Aybsiz bo'libon ko'zingga doxil bo'lmish.
Siz ilmsizu men hamon aybsizmen,
Ters boqma, bu joy o'zingga maqul bo'lmish...

15

Yo Rab, shu holimga boqib, rahmat qil,
Hajring o'ti bag'rimni yoqib, rahmat qil.
Rahmat so'ramasmen notavon ko'ksim uchun,
O'rta meni ko'z yoshim oqib, rahmat qil...

16

Kibrim ipidin o'zing xalos et, yo Rab,
Nafsim itidin o'zing judo et, yo Rab.
Begona erurmen, oshnolik ko'rgiz,
Kel, endi o'zingga oshno et, yo Rab...

17

Ey lutfi kabir, lutfu karam ehson qil,
Gar lutfi karam aylar esang, chandon qil.
Bandangni gunohlar yukidin ozod et...
Charchoq shu faqirlar ishini oson qil...

18

Ishq keldiyu oshufta bo'lib jonu ko'ngil,
Do'st mehriyu do'st yodiga to'ldim butkul.
Azoyi vujudimni tamom do'st oldi,
Nom qoldi faqat mengayu qolgan bari ul...

19

Yuz yil yonamen olovda, yonmoq ne emish,
Yonmoq menga o'yla rohati kavsar emish.
Suhbat qila ko'rma noahllar bila hech,
O'lmoq o'shalar suhbatidin afzal emish...

20

Shart ulki, mudom sohibi dard bo'lgaysen,

This is not registered version of TotalDocConverter

Tupiq ha chang sohima ga bo'lgaysen.
 Har kimsa murodin kam etar, mard bo'lgay,
 Ko'p orzu-havas aylama, mard bo'lgaysen.

21

Har go'shada bo'yla hoziru borsan o'zing,
 Yo'l ko'rsat o'zing, yo'lovchiga yorsan o'zing.
 Ilkimni cho'zib, ne madad etgaymen?
 Zeroki, ularga chin madadkorsan o'zing...

22

Yo Rab, o'zimni bir gado istarmen,
 Shu telba ko'ngilni podsho istarmen.
 Har kimsa kelib, ayricha hojat so'rgay,
 Men ersam o'zingni, ey Xudo, istarmen...

23

Yo Rab, menga shu omonatim bergaysen,
 Loyiq sharafim - ibodatim bergaysen.
 Hissamga tushibdir u jahonu bu jahon,
 Har ikkisida farog'atim bergaysen...

24

Ul subhi visoldin yiroq erdi adam,
 Ishqing bila bir go'shada erdik hamdam.
 Kunduzlari, oh, qoshimda hamdam yo'qdir,
 Tunlarda g'aming hamdan erur menga, ne g'am...

25

Mendin necha yuz jurmu gunoh ko'rmishsen,
 Lek lutfu karam birla ayab turmishsen,
 Sen menga suyuksen, ahli olamga suyuk,
 Chin lutfu karam sohibi sen ermishsen...